



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No9(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 160 sahifa,
2-sentyabr, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

O'smirlarda hissiy bezovtalikning psixologik determinantlari sifatida o'z-o'zini baholash va o'ziga munosabat xususiyatlari.....	10
Ibraymova Altinay Esemuratovna	
Bo'lajak pedagoglar shaxsiyatida ksenofobiya xavfi: kasbiy deformatsiya omillari va uning pedagogik faoliyatga ta'siri	16
Abdiraximova Dildora Begimkulovna	
Biologiya ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish: didaktik imkoniyatlar, muammolar va metodik yechimlar	20
Raxmatov Uchkun Ergashevich	
Talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi psixologik bog'liqlik.....	28
Adizova Muxabbat Muxitdinovna	
Oliy ta'lim rahbar-kadrlarida stressogen vaziyatlarni boshqarishning pedagogik-psixologik o'ziga xos jihatlari	32
Sultonov Mansur G'aniyevich	
Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv orqali o'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilash	37
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasi: tuzilma va mezonlar	41
Qo'qonboyeva Durdona Faxriddin qizi	
Biologiyani o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlari.....	44
Joldasbayeva Gulchexra Maksetbayevna	
Organik fotoelementlarning moslashuvchanligini oshirish	49
Jalolova Pokiza Muzaffarovna	
Dzyudo sport turida texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda maxsus mashqlardan foydalanish samaradorligi.....	54
Ko'palov Sanjar Ulug'bekovich	
Interactive Methods for Developing Sociolinguistic Competence in Higher Education	59
Baxramova Diyora Sanjar qizi	
Texnika yo'nalishi talabalarini ishlab chiqarish muhitiga tayyorlashda CDIO va sanoat korxonalari hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	66
Gaffarov Xasan Ravshanovich	
Onkologik bemorlarga tashxisni bildirish madaniyati va uning psixologik oqibatlari (O'zbekiston misolida)...	70
Jonpo'lotova Manzura Jahonovna	
Malaka oshirish jarayonida rahbar-kadrlarning SOFT-kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi.....	75
Axrorova Umida Xamidullayevna	
Refleksiv ta'lim muhitida o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik parametrlari tizimi	81
Sadikova Shaxnoza Ulug'bek qizi	
Loyihaviy faoliyat asosida talabalarda mustaqil ta'lim kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari	87
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Biologiya fanini o'qitishda biologiya (maxsus pedagogika: logopediya) yo'nalishi talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	91
Hakimova Musharraf Fozilovna, Hasanova Zebo Davlatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bolalar adabiyotining didaktik imkoniyatlari	96
Homiyatova Mavluda Amon qizi	
Boshlang'ich sinflarda raqamli ta'lim muhitini yaratish va interaktiv metodlardan foydalanish	101
Karimova Nargiza Raximovna	



Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar asosida bolalarning soft skillsini rivojlantirish: interaktiv va sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlar	109
Mamatqulova Nozimaxon Shavkat qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion pedagogik faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish: kvazi-eksperimental tadqiqot	116
Nozimabonu Tojiboyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborotni tekshirish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	124
Abduraxmonova Gulandam Anvarjonovna	
Funksional yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirishning ustuvor jihatlari	130
Safarov Dilmurod Zoirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda o'qish savodxonligining ahamiyati	135
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish asosida matematika fanini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasi	140
Sultonova Shahnoza Yusuf qizi	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish metodikasini yosh omili asosida takomillashtirish	147
Akhmadaliyeva Nargizakhon Abdumalik qizi	
Tengdoshlar bilan munosabat sifatiga oilaviy muhitning bilvosita ta'siri	153
Baratullayeva Dilnoza Xabibullo qizi	
Bolalar kiyimlari va ular bilan bog'liq urf-odatlar (Buxoro vohasi misolida)	156
G'iyosova Zarina Yusuf qizi	

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING AXBOROTNI TEKSHIRISH VA DALILLARGA ASOSLANGAN XULOSA CHIQARISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Abduraxmonova Gulandam Anvarjonovna

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti

Namangan manzili, Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining zamonaviy axborot muhitida ma'lumotlarni izlash, tekshirish, turli manbalarni taqqoslash, dalillarni aniqlash hamda dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-metodik asoslari yoritilgan. Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga keng kirib kelishi natijasida o'quvchilarning axborot bilan ishlash imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda. Biroq axborotga ega bo'lish uning ishonchligini baholash va undan to'g'ri foydalanish ko'nikmasi shakllanganligini anglatmaydi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim bosqichidayoq o'quvchilarda axborot manbasini aniqlash, fakt va fikrni farqlash, ma'lumotlarni o'zaro taqqoslash, dalillarni tekshirish va asoslangan xulosa chiqarish kompetensiyalarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Tadqiqotda mazkur ko'nikmalarning tarkibiy komponentlari aniqlanib, ularni shakllantirishning "Aniqlash - Tekshirish - Taqqoslash - Dalillash - Xulosa" bosqichlariga asoslangan metodik modeli taklif etiladi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos topshiriqlar tizimi hamda baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari axborot savodxonligi, tanqidiy fikrlash, funksional savodxonlik va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini o'zaro integratsiyalashgan holda rivojlantirish imkonini beruvchi metodik yondashuvni asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, axborot savodxonligi, raqamli savodxonlik, axborotni tekshirish, axborot manbasi, dalil, xulosa, tanqidiy fikrlash, funksional savodxonlik, metodika.

Abstract: This article highlights the pedagogical and methodological foundations for developing primary school students' skills in searching for, verifying, comparing information from different sources, identifying evidence, and drawing evidence-based conclusions in the modern information environment. As digital technologies become increasingly integrated into the educational process, students' opportunities to work with information are expanding significantly. However, having access to information does not mean that learners have developed the ability to assess its reliability and use it appropriately. Therefore, developing students' competencies in identifying information sources, distinguishing facts from opinions, comparing information, verifying evidence, and drawing well-founded conclusions from the primary education stage is an important pedagogical task. The study identifies the structural components of these skills and proposes a methodological model based on the stages "Identification - Verification - Comparison - Evidence - Conclusion". In addition, a system of tasks and assessment criteria appropriate to the age and psychological characteristics of primary school students is developed. The results of the study serve to substantiate a methodological approach that enables the integrated development of information literacy, critical thinking, functional literacy, and independent decision-making skills.

Key words: primary education, information literacy, digital literacy, information verification, information source, evidence, conclusion, critical thinking, functional literacy, methodology.



Аннотация: В данной статье освещаются педагогико-методические основы формирования у учащихся начальных классов навыков поиска, проверки информации, сопоставления различных источников, определения доказательств и формулирования выводов, основанных на доказательствах, в современной информационной среде. В результате широкого внедрения цифровых технологий в образовательный процесс возможности учащихся по работе с информацией значительно расширяются. Однако наличие доступа к информации не означает сформированности навыков оценки её достоверности и правильного использования. Поэтому развитие у учащихся уже на этапе начального образования компетенций по определению источника информации, различению факта и мнения, сопоставлению данных, проверке доказательств и формулированию обоснованных выводов является важной педагогической задачей. В исследовании определены структурные компоненты данных навыков и предложена методическая модель их формирования, основанная на этапах "Определение - Проверка - Сопоставление - Аргументация - Вывод". Также разработаны система заданий и критерии оценивания, соответствующие возрастным и психологическим особенностям учащихся начальных классов. Результаты исследования служат обоснованию методического подхода, обеспечивающего взаимосвязанное развитие информационной грамотности, критического мышления, функциональной грамотности и навыков самостоятельного принятия решений.

Ключевые слова: начальное образование, информационная грамотность, цифровая грамотность, проверка информации, источник информации, доказательство, вывод, критическое мышление, функциональная грамотность, методика.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi insonning axborotni izlash, qabul qilish, qayta ishlash va undan foydalanish usullarini tubdan o'zgartirmoqda. Ayniqsa, bolalarning axborot muhitiga kirib kelish yoshi tobora pasayib, boshlang'ich sinf o'quvchilari ham turli raqamli manbalar, qidiruv tizimlari, elektron ta'lim resurslari, videolar, tasvirlar va boshqa multimediyaviy materiallardan faol foydalanmoqda. Bunday sharoitda ta'limning vazifasi faqat o'quvchiga zarur bilimlarni berish bilan cheklanmaydi. O'quvchi axborotni mustaqil izlash, uning manbasini aniqlash, ishonchligini tekshirish, turli ma'lumotlarni taqqoslash va dalillarga asoslangan xulosaga kelishni ham o'rganishi zarur.

UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan Media and Information Literacy konsepsiyasida ham axborot va media savodxonligi zamonaviy shaxsning muhim kompetensiyalaridan biri sifatida qaralib, ta'lim oluvchilarni axborotni tanqidiy tahlil qilish va mas'uliyatli foydalanishga tayyorlash zarurligi ta'kidlanadi.

Mazkur muammo xalqaro ta'lim tadqiqotlarida ham dolzarb hisoblanadi. OECDning PISA 2022 natijalarida o'quvchilarning onlayn axborot sifatini baholash qobiliyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqotga ko'ra, OECD mamlakatlaridagi o'quvchilarning taxminan yarmi internetdagi axborot sifatini oson baholay olishini bildirgan, qolgan qismida esa ushbu jarayon ma'lum darajada qiyinchilik tug'diradi. Hisobotda ishonchli onlayn axborot manbalarini aniqlash ko'nikmasini rivojlantirish ta'lim tizimlarining ustuvor vazifalaridan biri bo'lishi kerakligi qayd etilgan.

Mazkur masalaning boshlang'ich ta'lim uchun ahamiyati alohida e'tiborga loyiq. Chunki aynan boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchining o'qish, tushunish, savol berish, taqqoslash, sabab-oqibatni aniqlash va mustaqil fikr bildirish kabi fundamental intellektual ko'nikmalari shakllanadi.

2025-yilda boshlang'ich maktab o'quvchilarining onlayn kontentni baholash kompetensiyalarini o'rgangan Jocham va Pohlmann-Rother tadqiqotida mazkur yoshdagi bolalar uchun onlayn axborotni baholashda ishonchlilik, mazmunning real voqelikka muvofiqligi, dizayn xususiyatlari va muhim belgilarni aniqlash kabi mezonlar ajratilgan. Tadqiqotchilar, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida fakt va fikrni ajratish, muallif maqsadini anglash, dalillarni baholash va turli manbalarni taqqoslash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatganlar.

Shu nuqtayi nazardan boshlang'ich ta'limda "axborotni topish" va "axborotni tekshirish" tushunchalarini bir-biridan farqlash muhimdir. O'quvchi qidiruv tizimi orqali kerakli ma'lumotni topishi mumkin, biroq bu ma'lumotning to'g'ri yoki noto'g'ri, obyektiv yoki subyektiv, ishonchli yoki ishonchsiz ekanligini mustaqil aniqlay olmasligi mumkin.

Shuning uchun mazkur maqolada asosiy e'tibor o'quvchining axborotni topish qobiliyatidan axborotni asosli baholash qobiliyatiga o'tishi masalasiga qaratiladi.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborotni tekshirish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-metodik asoslarini ishlab chiqish hamda mazkur jarayonning samarali metodik modelini taklif etishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Belgilangan maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

- axborotni tekshirish ko'nikmasining pedagogik mazmunini aniqlash;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarida mazkur ko'nikmaning tarkibiy komponentlarini belgilash;



- axborotni tekshirish jarayonining bosqichlarini aniqlash;
- dalillarga asoslangan xulosa chiqarishning metodik shartlarini ishlab chiqish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;
- o'quvchilarning axborot bilan ishlash ko'nikmalarini baholash mezonlarini taklif etish.

Tadqiqot obyekti. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning axborot bilan ishlash faoliyati.

Tadqiqot predmeti. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborotni tekshirish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish mazmuni, metodlari, vositalari va pedagogik shart-sharoitlari.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborotni tekshirish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda axborot savodxonligi, tanqidiy fikrlash va funksional savodxonlik bilan bog'liq holda o'rganilgan.

R. Hobbs media va axborot savodxonligini rivojlantirishda axborotni tahlil qilish, baholash va undan ongli foydalanish ko'nikmalarining muhimligini ta'kidlaydi.

S. Wineburg va S. McGrew raqamli axborotning ishonchliligini tekshirishda manbalarni taqqoslash va dalillarni baholash zarurligini asoslagan.

Jocham va Pohlmann-Rother esa boshlang'ich maktab o'quvchilarida fakt va fikrni farqlash, muallif maqsadini anglash, manba ishonchliligini baholash hamda turli axborotlarni qiyoslash ko'nikmalarini rivojlantirish muhimligini ko'rsatgan.

Ushbu ilmiy qarashlar boshlang'ich ta'limda axborotni tekshirish va asoslangan xulosa chiqarishga yo'naltirilgan maxsus metodik topshiriqlarni qo'llash zarurligini asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga asoslangan ta'lim, funksional savodxonlik, raqamli va axborot savodxonligi hamda tanqidiy fikrlashga oid ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik modellashtirish, metodik loyihalashtirish va topshiriqlarni didaktik tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Metodik modelni ishlab chiqishda boshlang'ich maktab o'quvchilarining yosh xususiyatlari, bilish faoliyati, o'qish va matnni tushunish darajasi, raqamli muhit bilan o'zaro munosabati hamda mustaqil fikrlash imkoniyatlari hisobga olindi.

Tadqiqotda axborotni tekshirish jarayoni besh o'zaro bog'liq bosqich asosida modellashtirildi:

1. Aniqlash → 2. Tekshirish → 3. Taqqoslash → 4. Dalillash → 5. Xulosa.

Mazkur modelning asosiy xususiyati shundaki, u o'quvchini tayyor axborotni qabul qiluvchi subyekt emas, balki axborotning ishonchliligini mustaqil aniqlashga intiluvchi faol ta'lim subyekti sifatida ko'radi.

1-bosqich. Aniqlash. Ushbu bosqichda o'quvchi axborotning manbasini aniqlaydi. O'quvchiga quyidagi savollar beriladi:

1. Ma'lumot qayerdan olingan?
2. Uni kim yaratgan?
3. Muallif ko'rsatilganmi?
4. Ma'lumot qachon berilgan?
5. Bu kitob, maqola, sayt yoki videomi?

Mazkur bosqichning asosiy vazifasi o'quvchida "har bir axborotning manbasi mavjud" degan tushunchani shakllantirishdir.

2-bosqich. Tekshirish. Ikkinchi bosqichda o'quvchi axborotning mazmunini tahlil qiladi. Masalan:

1. Bu ma'lumot faktmi yoki fikrmi?
2. Muallif o'z fikrini dalil bilan asoslaganmi?
3. Ma'lumotni tasdiqlovchi misol bormi?
4. Berilgan ma'lumot mantiqan to'g'rimi?



Bu bosqich o'quvchida axborotni avtomatik ravishda qabul qilmasdan, unga savol berish odatini shakllantiradi.

3-bosqich. Taqqoslash. Uchinchi bosqichda o'quvchi bir mavzuga oid ikki yoki undan ortiq manbani taqqoslaydi. Masalan, "Suv nima uchun kerak?" mavzusida ikki xil axborot manbasi beriladi. O'quvchilar har ikki manbadagi umumiy va farqli ma'lumotlarni aniqlaydilar. Bu jarayonda o'quvchi: o'xshashlik → farq → dalil → ishonchlilik ketma-ketligida fikrlashga o'rgatiladi.

4-bosqich. Dalillash. Mazkur bosqich tadqiqot metodikasining eng muhim komponentlaridan biridir. O'quvchi o'z fikrini shunchaki bayon qilmasdan, uni dalil bilan asoslashga o'rgatiladi. Masalan: "Men birinchi manbani ishonchli deb hisoblayman, chunki unda muallif ko'rsatilgan, ma'lumot sanasi berilgan va fikr dalil bilan asoslangan." Yoki: "Men bu ma'lumotdan foydalanmagan bo'lardim, chunki uning manbasi ko'rsatilmagan va boshqa manbalar bilan tasdiqlanmagan." Shunday topshiriqlar o'quvchining fikr + dalil + xulosa modeli asosida fikrlashini rivojlantiradi.

5-bosqich. Xulosa. Yakuniy bosqichda o'quvchi tekshirilgan ma'lumotlar asosida mustaqil xulosa chiqaradi. Bu bosqichda o'quvchidan:

- qaror qabul qilish;
- qarorini asoslash;
- dalillarni umumlashtirish;
- mustaqil xulosa yaratish talab etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborotni tekshirish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik model ishlab chiqildi. Modelning mazmuni quyidagicha ifodalanadi:

1. Bosqich
2. O'quvchi faoliyati
3. Shakllanadigan ko'nikma
4. Aniqlash
5. Manbani aniqlaydi
6. Axborot manbasini anglash
7. Tekshirish
8. Mazmunni tahlil qiladi
9. Tanqidiy tahlil
10. Taqqoslash

Turli manbalarni solishtiradi: qiyosiy fikrlash, dalillash. Fikrini dalil bilan asoslaydi: argumentatsiya, xulosa, mustaqil qaror chiqaradi, asoslangan xulosa.

Ushbu modelning muhim jihati shundaki, bosqichlar bir-biridan uzilgan holda emas, balki yagona kognitiv jarayon sifatida amalga oshiriladi. Masalan, o'quvchi biror ma'lumotni topadi. Biroq u ma'lumotning manbasini aniqlamasdan turib, uning ishonchliligi haqida yakuniy fikr bildirmaydi. Keyin boshqa manbalarni ko'rib chiqadi, o'xshash va farqli jihatlarni aniqlaydi, dalillarni tekshiradi va shundan so'ng xulosa chiqaradi.

Shunday qilib, tadqiqotda axborotni tekshirish ko'nikmasi quyidagi formulada ifodalandi: axborotni aniqlash + manbani tekshirish + ma'lumotni taqqoslash + dalilni baholash + asoslangan qaror = axborot savodxonligi. Mazkur yondashuv OECD tomonidan ta'kidlangan onlayn axborot sifatini baholash, turli manbalarni taqqoslash va axborotning aniqligini tekshirish kabi amaliyotlar bilan hamohangdir.

O'quv topshiriqlarining metodik tizimi. Tadqiqot doirasida quyidagi topshiriqlarni qo'llash maqsadga muvofiq deb topildi:

1. **"Manbani top" topshirig'i.** O'quvchiga qisqa raqamli matn beriladi. U matnning muallifi, nomi, sanasi va manbasini aniqlaydi.
2. **"Fakt yoki fikr?" topshirig'i.** O'quvchi berilgan gaplarni fakt va fikrga ajratadi.

3. **“Ikki manba – bir savol” topshirig’i.** Bir savolga javob beruvchi ikki manba taqdim etiladi. O’quvchi ularni taqqoslaydi.
4. **“Dalilni top” topshirig’i.** O’quvchi matndagi asosiy fikrni tasdiqlovchi dalillarni aniqlaydi.
5. **“Ishonchli manbani tanla” topshirig’i.** Bir mavzu bo’yicha ikki yoki uch manba beriladi va o’quvchi eng ishonchli manbani tanlab, tanlovini asoslaydi.
6. **“Xulosamni asoslayman” topshirig’i.** O’quvchi mustaqil xulosa yozadi va xulosasini kamida bitta dalil bilan asoslaydi.

Tadqiqotda taklif etilgan metodik model boshlang’ich ta’limda axborot bilan ishlash jarayonini yangi mazmun bilan boyitadi. An’anaviy yondashuvda o’quvchidan ko’pincha ma’lumotni topish, o’qish va qayta aytib berish talab qilinadi. Taklif etilayotgan yondashuvda esa o’quvchi ma’lumotni topishdan keyingi bosqichlarga ham jalb qilinadi.

Birinchidan, o’quvchi axborot manbasini aniqlaydi.

Ikkinchidan, uning mazmunini tekshiradi.

Uchinchidan, boshqa ma’lumotlar bilan taqqoslaydi.

To’rtinchidan, o’z fikrini dalillar bilan asoslaydi.

Beshinchidan, mustaqil xulosa chiqaradi.

Bunday ketma-ketlik o’quvchining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish uchun muhim shart hisoblanadi.

Xalqaro tadqiqotlarda ham o’quvchilarning onlayn axborotning sifati, ishonchliligi va aniqligini tekshirish odatlari tanqidiy fikrlash va faol o’rganish bilan bog’liqligi ko’rsatilgan. Shuningdek, boshlang’ich maktab o’quvchilarining onlayn kontentni baholashiga bag’ishlangan 2025-yilgi tadqiqotda bolalar uchun fakt va fikrni farqlash, axborotning maqsadini anglash, manba ishonchliligini baholash va turli kontent shakllarini tahlil qilish muhim kompetensiyalar sifatida ko’rsatilgan.

Mazkur tadqiqotning taklif etilayotgan modelining farqli jihati shundaki, biz axborotni baholashning alohida mezonlarini sanab o’tish bilan cheklanmay, ularni bosqichma-bosqich pedagogik faoliyat algoritmi birlashtirishni taklif qilamiz. Bunda o’quvchining yoshi alohida hisobga olinishi kerak. Boshlang’ich sinf o’quvchisiga murakkab ilmiy terminlar orqali “epistemik ishonchlilik”, “manbaning obyektivligi” yoki “axborotning verifikatsiyasi”ni tushuntirishdan ko’ra, sodda va takrorlanuvchi savollar samaraliroq bo’lishi mumkin:

1. Kim aytdi?
2. Qayerdan oldik?
3. Bunga qanday dalil bor?
4. Boshqa manbada ham shundaymi?
5. Nima uchun bunga ishonish mumkin?

Ushbu savollar o’quvchining murakkab axborot baholash faoliyatini yoshiga mos kognitiv amallarga ajratish imkonini beradi. Metodik yondashuvning yana bir muhim jihati - o’quvchini internetdagi barcha ma’lumotlardan shubhalanishga emas, asoslangan ishonch tamoyiliga o’rgatishdir. Ya’ni o’quvchi “bu to’g’ri” degan xulosaga kelganda ham “Nima uchun to’g’ri deb o’ylayapsan?” degan savolga javob bera olishi kerak. Shu sababli baholash jarayonida faqat yakuniy javob emas, balki o’quvchining qaror qabul qilish jarayoni ham baholanishi lozim.

Ko’nikmalarni baholash mezonlari: daraja, ko’rsatkich, boshlang’ich

Axborotning tashqi ko’rinishi yoki shaxsiy ishonchiga asoslanib qabul qiladi.

- **Shakllanayotgan.** Manba va dalilning ayrim belgilarini aniqlaydi, ammo ulardan izchil foydalanmaydi.
- **Yetarli.** Manbani tekshiradi, ma’lumotlarni taqqoslaydi va dalil asosida xulosa chiqaradi.
- **Yuqori.** Bir nechta manbani mustaqil tekshiradi, dalillarni baholaydi va asoslangan qarorini izohlaydi.

Mazkur mezonlar o’quvchilarning axborot savodxonligini faqat reproduktiv bilimlar orqali emas, balki amaliy faoliyat orqali baholash imkonini beradi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Raqamli muhitning kengayishi o'quvchidan nafaqat kerakli ma'lumotni topishni, balki uning ishonchligini aniqlash, turli manbalarni taqqoslash, dalillarni baholash va asoslangan xulosa chiqarishni ham talab qilmoqda. Tadqiqot natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborotni tekshirish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan "Aniqlash - Tekshirish - Taqqoslash - Dalillash - Xulosa" metodik modeli taklif qilindi.

Ushbu modelning pedagogik ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- o'quvchini axborotning faol tahlilchisiga aylantiradi;
- manba bilan ishlash ko'nikmasini shakllantiradi;
- fakt va fikrni ajratishga yordam beradi;
- turli manbalarni taqqoslashni o'rgatadi;
- dalillarga asoslangan fikrlashni rivojlantiradi;
- mustaqil va asoslangan xulosa chiqarish imkonini beradi.

Taklif etilgan metodika boshlang'ich ta'limning o'qish, ona tili, tabiiy fanlar, matematika va boshqa fanlari mazmuniga integratsiya qilinishi mumkin. Ayniqsa, muammoli vaziyatlar, ikki xil manbani taqqoslash, "fakt yoki fikr?", "dalilni top", "ishonchli manbani tanla" kabi topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning mazkur kompetensiyalarini rivojlantirish uchun samarali metodik vosita bo'la oladi. Shu bilan birga, ushbu maqolada taklif etilgan metodik modelning real pedagogik samaradorligini aniqlash uchun keyingi bosqichda tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, nazorat va tajriba guruhlari natijalarini qiyosiy tahlil qilish hamda ishlab chiqilgan mezonlar asosida o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini aniqlash zarur.

Umuman olganda, boshlang'ich ta'limda axborotni tekshirish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish o'quvchilarning nafaqat raqamli savodxonligini, balki tanqidiy fikrlashini, funksional savodxonligini, mustaqil o'rganishini va mas'uliyatli axborot iste'molchisi sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bråten, I., Strømsø, H. I., & Salmerón, L. (2011). Trust and mistrust when students read multiple information sources about climate change. *Learning and Instruction*, 21(2), 180-192.
2. Buckingham, D. (2015). Defining digital literacy-What do young people need to know about digital media? *Nordic Journal of Digital Literacy*, 10, 21-35.
3. Coiro, J., Coscarelli, C., Maykel, C., & Forzani, E. (2015). Investigating criteria that seventh graders use to evaluate the quality of online information. *Journal of Educational Psychology*, 107(2), 526-537.
4. Jocham, T., & Pohlmann-Rother, S. (2025). Measuring what matters: Developing indicators for online content evaluation competencies in elementary school. *Frontiers in Education*, 10, 1652500.
5. Kiili, C., Leu, D. J., Marttunen, M., Hautala, J., & Räikkönen, E. (2019). Exploring early adolescents' evaluation of academic and commercial online resources related to health. *Reading and Writing*, 32, 175-198.
6. OECD. (2024). PISA 2022 Results (Volume V): Learning Strategies and Attitudes for Life. Paris: OECD Publishing.
7. UNESCO. (2021). Media and Information Literate Citizens: Think Critically, Click Wisely!. Paris: UNESCO.
8. Wineburg, S., & McGrew, S. (2019). Lateral reading and the nature of expertise: Reading less and learning more when evaluating digital information. *Teachers College Record*, 121(11), 1-34.
9. Leu, D. J., Forzani, E., Rhoads, C., Maykel, C., Kennedy, C., & Proctor, C. P. (2014). The new literacies of online research and comprehension: Rethinking the reading achievement gap. *Reading Research Quarterly*, 50(1), 37-59.
10. Paul, J., Macedo-Rouet, M., Rouet, J.-F., & Stadler, M. (2017). Why good readers cannot always evaluate online information accurately: A study of source evaluation skills. *Reading and Writing*.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.